

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**



«TASDIQLAYMAN»

Navoiy davlat pedagogika instituti

M.B.Kalonov

2024 yil "09" 09

Ro'yxatga olindi: 2024 / Haykan 2205

2024 yil "9" 09

**(T.f.) HAYKALTAROSHLIK**

**O'QUV DASTURI**

Bilim sohasi: 100 000 – Ta'lim  
Ta'lim sohasi: 110 000 – Ta'lim  
Ta'lim yo'nalishi: 70110501 – Tasviriy san'at

**Navoiy– 2024**

<b>Fan/modul kodi</b> Haykal2205		<b>O'quv yili</b> 2024-2025	<b>Semestr</b> 2	<b>Kreditlar</b> 5	
<b>Fan/modul turi</b> Tanlov		<b>Ta'lim tili</b> O'zbek/rus		<b>Haftadagi dars soatlari</b> 4	
<b>1.</b>	<b>Fanning nomi</b>	<b>Auditoriya mashg'ulotlari (soat)</b>	<b>Mustaqil ta'lim (soat)</b>	<b>Jami yuklama (soat)</b>	
	Haykaltaroshlik	60	90	150	
<b>2.</b>	<p><b>I. Fanning mazmuni</b></p> <p><b>Fanning maqsadi</b> – magistrlarda badiiy tafakkur, ijodiy qobiliyat, ko'rib eslab qolish, fazoviy tasavvurni shakllantirish, san'at asarlariga nisbatan yetetik munosabatni, go'zallikka bo'lgan muhabbatni rivojlantirish hamda ularni amaliyotga tatbiq etish ko'nikmasini hosil qilish.</p> <p><b>Fanning asosiy vazifasi</b> – magistrni haykaltaroshlikka oid nazariy asoslarini, amaliy ish jarayonidagi tushuncha va bilimlarni, belgilangan vazifalar orqali oddiydan murakkab tomon bosqichma-bosqich ishlash qonun-qoidalarini amaliyotga tatbiq etish ko'nikmasini hosil qilish hamda ularda ijodkorlik kompetensiyalarini shakllantirish.</p> <p style="text-align: center;"><b>II. Nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</b></p> <p style="text-align: center;"><b>II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</b></p> <p><b>I-MODUL: HAYKALTAROSHLIK SAN'ATINING QISQACHA TARIXI VA UNING NAZARIY ASOSLARI.</b></p> <p><b>1-mavzu.</b> Fanga kirish. Haykaltaroshlik san'ati xususiyatlari.</p> <p><b>2-mavzu.</b> Haykaltaroshlikning paydo bo'lishi va rivojlanish bosqichlari (ellinizm davri, o'rta asrlar va XIX-XX asrlar).</p> <p><b>3-mavzu.</b> Uyg'onish davri haykaltaroshligi.</p> <p><b>II-MODUL: O'RTA OSIYO ARXEOLOGIK QAZISHMALARIDA TOPILGAN HAYKALTAROSHLIK.</b></p> <p><b>4-mavzu.</b> O'rta Osiyo haykaltaroshligi.</p> <p><b>5-mavzu.</b> Mustaqillik yillari O'zbekiston haykaltaroshligi.</p> <p style="text-align: center;"><b>III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar</b></p> <p style="text-align: center;"><b>Amaliy mashg'ulotlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:</b></p> <p>1. Plastik va boshqa mos haykaltaroshlik materiallardan uch o'lchamli fazoviy kompozitsiyalar yaratish. (Tosh, temir, bronza, mis, yog'och, loy va boshqa materiallardan badiiy obraz yaratish.) (4 soat)</p> <p>2. Sodda gips rozetkasini modeliga qarab ishlash. (4 soat).</p> <p>3. Tabiat mo'jizalaridan kompozitsiyalar tuzish. (4 soat).</p> <p>3. Uch jismdan tuzilgan natyurmortni relefli ko'rinishini loyda ishlash. (8 soat).</p>				



4. Animal haykallar ishlash. Hayvonlar va qushlar shaklini ishlash. (4 soat)
5. Odam yuz bo'laklarini gips modeliga qarab ishlash (og'iz, burun, ko'z, quloq). (6 soat).
6. Antik davriga mansub bo'lgan gips niqob shakli rel'yefini ishlash. (6 soat).
7. Shaharsozlik me'moriy yechimlarida zamonaviy haykaltaroshlik kompozitsiyalarini qo'llash. (4 soat).
8. Tosh, temir, bronza, mis, yog'och, loy va boshqa materiallardan badiiy obraz yaratish. (10 soat).

#### **IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar.**

Magistr mustaqil ta'limni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlari hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi.

- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari hamda mavzularini o'rganish;

- tarqatma materiallar ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha mavzular ustida ishlash;
- talabaning o'quv, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularini chuqur o'rganish;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari;
- masofaviy ta'lim.

#### **Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

1. Haykaltaroshlarning ijodiy asarlarini o'rganish va tahlil qilish.
2. Haykaltaroshning asosiy qoidalarini namoyish etuvchi plakatlarni o'rganish.
3. Haykaltaroshlikka oid maxsus adabiyotlarni mutola qilish.
4. Haykaltaroshlar ustaxanalariga va ko'rgazma zallariga tashrif buyurish.
5. Antik davr niqoblarining o'ziga xosligiga oid tasvirlar ishlash.
6. Haykaltaroshlarning ijodiy asarlarini o'rganish va tahlil qilish.
7. Haykaltaroshning asosiy qoidalarini namoyish etuvchi plakatlarni o'rganish.
8. Haykaltaroshlikka oid maxsus adabiyotlarni mutola qilish.
9. Haykaltaroshlar ustaxanalariga va ko'rgazma zallariga tashrif buyurish.
10. Antik davr niqoblarining o'ziga xosligiga oid tasvirlar ishlash.

#### **4. VI. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**

##### **Magistr bilishi kerak:**

- haykaltaroshlik mashg'ulotlarini o'tishda tasviriy san'at janrlari, kompozitsiya qonuniyatlari, perspektiva, ufq tekisligi, siluet, konstruksiyalash, masshtab, nisbatlar, byust, relief hamda turli materiallardan foydalanish;
- haykaltaroshlik fanini oliy ta'lim, professional ta'lim muassasalarida o'qitishning asosiy printsiplari va xususiyatlari kabi *bilimga ega bo'lishi*;
- milliy va jahon haykaltaroshlik tarixiga oid ma'lumotlarni bilish, tasviriy san'at tarixi va nazariyasi, kompozitsiya qonuniyatlari va plastik anatomiya,

	<p>portret xarakteristikasi, psixologik yechim, ijodiy va amaliy ishlash metodlari, haykaltaroshlik texnologiyalari, oddiy geometrik shakllardan boshlab insonning qomatini tasvirlay olishgacha, turli materiallardan inson qomatini, qush va hayvonlar shaklini amaliy ishlay olish;</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- haykaltaroshlik fanini o'qitish printsiplarini;</li> <li>- o'quv jarayonini tashkil etish, ta'lim oluvchilarning diqqatini jalb qilish va mashg'ulot samaradorligini to'la oshirish <i>malakalariga ega bo'lishi</i>.</li> <li>- haykaltaroshlik asarlarini tahlil qila olish, badiiy tafakkur, ijodiy qobiliyat, ko'rib eslab qolish, san'at asarlariga nisbatan estetik munosabatni, go'zzallikka bo'lgan muhabbatni rivojlantirish, darslarni rejalashtirish, tasvirlash texnologiyalari, yaxshi va o'zlashtirishi qiyin bo'lgan talabalar bilan individual darslar olib borish, ularda ijodiy ishlarni baholay olishni rivojlantiruvchi;</li> <li>- haykaltaroshlik fanini muayyan o'quv-metodik materiallarini ishlab chiqish <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak</i>.</li> </ul>
5.	<p><b>VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• interfaol keys-stadilar; ( mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar);</li> <li>• guruhlarda ishlash;</li> <li>• amaliy mashg'ulotlar</li> <li>• taqdimotlarni qilish;</li> <li>• individual loyihalar;</li> <li>• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.</li> <li>• ijodiy ishlar yaratish</li> </ul>
6.	<p><b>VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar va tushunchalar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha variantlar asosida yozma topshiriqlarni bajarishi zarur.</p>



7.

**IX. Asosiy adabiyotlar:**

1. Baymetov B.B. "Haykaltaroshlik va plastik anatomiya" o'quv qo'llanma. Toshkent, Iktisod-moliya, 2007

2. Baymetov B. Plastik anatomiya (Amaliy mashg'ulotlari). Uslubiy qo'llanma. Toshkent, 2011

**Qo'shimcha adabiyotlar:**

3. Shahodatov M, "Haykaltaroshlik va plastik anatomiya" o'quv qo'llanma. Toshkent, Fan va texnologiya, 2004

4. Shomurodov O, "Haykaltaroshlik". O'quv qo'llanma. – Buxoro. Kamolot, 2022.

5. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. O'quv qo'llanma. – T.: TDPU, 2004.

6. Azizxo'jayeva N.N. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – T.: 2002y.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining  
Farmoni**

1. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida. (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda)

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-6108-son farmoni.

**Axborot manbalari**

1. [www.gov.uz](http://www.gov.uz) – O'zbekiston Respublikasi xukumat portali.

2. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.

3. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)

4. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

5. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)

6. [tdpu - INTRANET. Ped](#)

7. [www.nbgf.intal.uz](http://www.nbgf.intal.uz)

8.	Navoiy davlat pedagogika instituti tomonidan ishlab chiqilgan va institut Kengashining 2024 yil " 6 " 09 1 dagi qarori bilan tasdiqlangan.
9.	<b>Fan/modul uchun mas'ullar va dastur mualliflari:</b> Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi kafedrası v.b.dots. p.f.f.d. (PhD) <u><i>[Signature]</i></u> S.A.Shovdirov
10.	<b>Taqrizchilar:</b> <b>O.D.Raximov</b> – NDPI, "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" kafedrası dotsenti <b>S.S.Abdullayev</b> – BuxDU "Tasviriy san'at va amaliy san'at kafedrası" dotsenti

Kafedra mudiri *[Signature]* t.f.n. A.H.Abdullayev

№ TS/M - 40d